

**XVI ASRDA BUXORO XONLIGINING HINDISTON BILAN TASHQI SAVDO
VA DIPLOMATIK ALOQALARINING YOZMA MANBALARDA
YORITILISHI XUSUSIDA**

Shernazarova Kamola Niyozali qizi,
“University of Business and Science” Toshkent filiali magistratura talabasi
kamolaniyozaliqizi@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mirzayev Bekzod Nuraliyevich,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada Buxoro xonligining tashqi diplomatik siyosati va iqtisodiy aloqalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning mintaqaviy ahamiyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Abdullaxon II, Rossiya, Hindiston, Mirza Po'lat tashqi siyosat, boshqaruv, savdo aloqalari.

Аннотация. В статье на основе исторических источников анализируются становление, этапы развития и их региональное значение внешнеполитических и экономических связей Бухарского ханства.

Ключевые слова: Бухарское ханство, Абдуллахан II, Россия, Индия, Мирза Полат внешняя политика, управление, торговые связи.

Abstract. The article analyzes the formation, stages of development and their regional significance of the foreign diplomatic policy and economic relations of the Bukhara Khanate based on historical sources.

Keywords: Bukhara Khanate, Abdullakhan II, Russia, India, Mirza Polat foreign policy, governance, trade relations.

Kirish. Buxoro xonligi Markaziy Osiyoning yirik siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida o'z davrida nafaqat ichki boshqaruv tizimi, balki tashqi siyosat va iqtisodiy aloqalari bilan ham alohida o'rin egallagan.

Buxoro xonligining, qolaversa har uchchala xonlikning qo'shni Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini o'rganishda qo'lyozma manbalar, rus elchilari va diplomatlarining faoliyatlari bilan bog'liq yozma yodgorliklar katta rol o'ynaydi. Ular, xususan Sharq davlatlarining ijtimoiy — iqtisodiy va siyosiy tarixi haqida ham qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Masalan, Buxoro xonligi va u bilan bog'liq holda bir qator Sharq mamlakatlari haqidagi muhim ma'lumotlar savdogarlar va qochoq rus asirlarining axborotlarida ham o'z aksini topgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan savdo — iqtisodiy aloqalari qanchalik zarur va ahamiyatli bo'lmasin, bu aloqalar ichki ijtimoiy — iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda barqarorlik yo'qligi tufayli tranzit savdo uchun yaxshi imkoniyatlar ochib bera olmagai. Zero, tranzit savdo O'rta Osiyo uchun muhim rol o'ynardi. Shu bilan birgalikda, so'nggi o'rta asrlarda — jahon savdo

yo'llarining o'zgarishi, buyuk geografik kashfiyotlar, Eronning doimiy ravishda Turkiya va O'rta Osiyo xonliklari bilan harbiy ziddiyatlari, XVI asrdan boshlab O'rta Osiyodagi siyosiy beqarorlik Movarounnahrning oldingi davrug'iga, ya'ni uning jahon tranzit savdo markazi maqomiga putur yetkazgan. Shuning uchun, XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo Rossiya bilan savdo aloqalaridan: ko'proq va ishonchliroq manfaatdor bo'la boshlagan. Asta — sekin Moskva davlati O'rta Osiyoning tashqi savdosida muhim rol o'ynay boshlagan.

Ikkinchi tomondan, g'arbda kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi Yevropa davlatlarining Sharq davlatlariga yaqinlashuviga sabab bo'ldi. Jumladan, ingliz savdo kompaniyasining vakili A.Jenkinsonning O'rta Osiyoga yuborilishi (XVI asr) bu harakatning yaqqol isboti edi. Biroq A.Jenkinsonning hisobot va ma'lumotlari O'rta Osiyo xonliklari tashqi iqtisodiy munosabatlari tarixi uchun qimmatli material ekani biz uchun muhim.

A.Jenkinson sayohatining maqsad va vazifalari tarixchilar tomonidan bir qadar o'rganilgan. Ammo tadqiqotchilar bu masalaga har bir holda o'zlarining maqsadlari nuqtai nazaridan yondoshganlar. Masalan: Yu. A. Sokolov, "Moskva kompaniya"sining asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, Hindistonga Rossiya Sharq bilan savdo aloqalari olib borgan yo'llari orqali kirib borishi lozim edi, deb hisoblab, quyidagicha yozgan: «Inglizlarning Rossiya orqali Hindistonga kirib borish yo'lini qidirib topish ishiga kompaniyaning eng faol vakillaridan biri Antoniy Jenkinson asos solgan».

Demak, A. Jenkinsonning O'rta Osiyoga sayohat qilishidan asosiy maqsad xonliklar orqali Hindistonga boradigan eng yaqin va qulay yo'lni topishdan iborat bo'lgan. U O'rta Osiyoda savdo ishlarini yo'lga qo'yish niqobi ostida Buxoroga borishga ruxsat olgan.

Rus olimi S.V.Jukovskiy Jenkinsonning Buxoroga borishi haqidagi fikrlarini bayon qilib quyidagicha yozadi: "Aytish qiyin, nahotki Jenkinson chindan ham Ioann Grozniyni o'z tomoniga og'dirib olgan, va go'yo Ivan Grozniy inglizlarga yoqish uchun uni O'rta Osiyoga borishiga ruxsat bergan. Jenkinsondan balki podsho (Ioann Grozniy – R.A.) foydalangandir va uni, 1557 yilda Rossiyada erkin savdo qilishlari uchun ruxsat so'rab hadya va tortiqlar bilan Moskvaga kelgan Xiva va Buxoro elchilik missiyasiga javob tariqasida Jenkinsonni Buxoro va Xivaga elchi qilib yubormadimikan? ».

Muhokama va natijalar. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, aytish mumkinki, Jenkinson Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi. O'ylaymizki, Jukovskiyning ikkinchi fikri haqiqatga yaqin bo'lsa kerak, ya'ni podsho O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o'rnatish maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorliq bergan. Jenkinsonning Rossiya nomidan O'rta Osiyoga jo'natilishi Rossiyaning O'rta Osiyo savdosida ma'lum bir manfaati bo'lgani tasdiqlaydi va

Rossiya bilan O‘rta Osiyo o‘rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yo‘l ochgan.

1558-yil 23-dekabrda Jenkinson Rossiya podshosi Ivan IV ning ishonch yorlig‘i bilan Buxoroga keladi va u yerda savdoning holati bilan tanishadi. Jenkinson Moskvaga qaytayotganida u bilan birga Buxoro, Urganch, Balx elchilari ham birga kelishgan.

Tarixchi P.P.Ivanov missiyani baholab, Rossiya bilan O‘rta Osiyo o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni Jenkinson kashf etmagan. Jenkinson bilan Moskvaga kelgan savdo karvoni 1000 tuyadan iborat bo‘lgani avvaldan Moskva - O‘rta Osiyo savdo munosabatlari an‘anaviy darajada bo‘lganidan dalolatdir, deb yozgan edi. Haqiqatdan ham, 1556 yil Astraxan bosib olinganda, bu yerda O‘rta Osiyo savdogarlari bo‘lgani ma‘lum. Ular o‘z tovarlari bilan Moskva davlati ichkarisigacha kirib borgan. Fikrimizcha, P.P.Ivanovning bu mulohazasida haqiqat bor.

Ma‘lumki, XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyo xonliklarining Moskva bilan savdo aloqalari rasmiy tus ola boshlaydi. Bizni bu o‘rinda Jenkinson tomonidan Buxoroning qo‘shni Sharq davlatlari bilan aloqalari haqida bergan ma‘lumotlari ahamiyatlidir.

Jenkinsonning Buxoroga kelishi arafasida O‘rta Osiyo Hindiston va Eron bilan faol savdo iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan edi. Jenkinson, “Buxoroda savdogarlarning har yilgi yig‘ilishi bo‘lib, u yerga Hindiston Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar katta karvonlar bilan kelib yig‘ilib turadi»,- deb yozgan edi. Bu holat XVI asr o‘rtalarida Buxoro qadimgiday xalqaro savdo markazlaridan biri bo‘lib qolganligidan dalolat beradi. Lekin ba‘zi mualliflar Ushbu masalaga shubha ko‘zi bilan qaradilar. Masalan, M.Yuldashev - "Jenkinsonning Buxoro savdosi haqidagi ma‘lumotlarini to‘liq haqiqat deb bilish qiyin. Aftidan savdoda raqobatchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan savdogarlarni bu savdodan chalg‘itmoqchi bo‘lgan bo‘lsa kerak. Buxoroda har yili Hindiston, Eron, Buxoro, Rossiyadan kelgan savdogarlarning yig‘ilishi bo‘lib turadi, deb yozib, Jenkinson yana qo‘shib qo‘yadi, «go‘yoki bu savdogarlar shu darajada qashshoqki, ular kam tovarlar olib kelishiga qaramay bu tovarlarni hatto uch yillab sotadi, shuning uchun bu yerda foydali savdo qilish uchun hech qanday ishonch yo‘q»,- deb yozadi.

Ba‘zi tarixchilarning fikricha, Jenkinson Angliya manufakturalarida to‘qilgan movut matolarni O‘rta Osiyoda sota olmagan uchun ataylab Buxorodagi hind savdogarlarining faoliyati va rolini pasaytirgan. Jenkinsonning ma‘lumotlariga ko‘ra, hind savdogarlari Buxoroga quyidagi mollarni olib kelishgan: salla uchun ishlatiladigan yupqa oq mato, ko‘ylak uchun ishlatiladigan oq matolar. Buxorodan esa

hind savdogarlari ipak matolar, oshlanmagan teri, qullar va otlar olib ketgan, lekin karazeya va movut matolarini qadrlashmagan.

Shunday qilib, Jenkinsonning ma’lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, Buxoro bilan Hindiston o’rtasida barqaror savdo aloqalari o’rnatilgan bo’lgan. Bu savdodagi asosiy tovarlardan biri indigo — nil bo’yog’i bo’lgan. Nil bo’yog’i shu qadar ko’p ediki, uni sotish uchun Hindiston savdogarlari ikki — uch yillab qolib ketardi.

XVI asrda ikkala davlat o’rtasidagi savdo va diplomatik aloqalar jonlanganini tasdiqlovchi ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Abdulloxon davrida Buxoro bilan Rossiya o’rtasida diplomatik aloqalar o’rnatilgan. 1585 yil Buxorolik elchi Muxammad Ali Rossiya podshosi Fyodor Ivanovichga Abdullaxon nomidan tartiqlar olib kelgan, hadyalar tarkibida 40 pud nil bo’yog’i ham bo’lgan.

Bu ma’lumot, o’sha davrda Buxoro bilan Hindiston o’rtasidagi savdoda Buxoroning tranzit mollar bozori vazifasini o’taganligidan dalolat beradi. N.I.Kostomarov va M.V.Fexnerlar o’z asarlarida Buxoro orqali hind tovarlarining Rossiyaga keltirilishi haqida yozib qoldirgan.

Hindiston Boburiylar saltanati davrida xalqaro savdoda faol qatnashgan. Ammo Hindiston g’arb davlatlari bilan dengiz orqali savdo qilish imkoniyatidan asta — sekin ajrala boshlaydi. V.V.Bartold «Portugallar Hindiston bilan foydali savdoni o’z qo’llarida saqlab qolish maqsadida XVI asr boshlaridayoq eng muhim qirg’oqbo’yi yerlarni egallab ola boshlagan edi», deb yozadi.

Hindiston va umuman Sharq davlatlari hayotidagi bu o’zgarishlar buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog’liq. XVI asr boshlarida portugallar Hindistonning port shaharlari bo’lgan Diu, Daman, Gaoni egallab olib, Hindistonning dengiz savdosi ustidan nazoratni qo’lga kiritgan. Mamlakatning aksariyat dengiz savdosining yevropaliklar qo’liga o’tishi mahalliy savdogarlarga katta zarar keltirgan. Shunday qilib, dengiz savdosidan mahrum bo’lgan hind savdogarlari o’z e’tiborlarini Afg’oniston va O’rta Osiyoga qaratgan.

Jenkinson Buxoro bozorlaridagi hind savdogarlarining faoliyati haqida, “ular Buxoroga na oltin, na kumush, na qimmatbaho toshlar, na ziravorlar keltiradi. Men, Hindistondagi bu tovarlar ishlab chiqariladigan eksport tovarlar portugallar qo’l ostida bo’lganligi uchun, bu tovarlar bilan savdo okean orqali olib borilishini aniqladim”, deb yozadi. Jenkinsonning Buxoroga hindlar na oltin, na kumush, na qimmatbaho toshlar, na ziravorlar keltiradi, degan fikri haqiqatdan yiroq. Ziravorlar Hindistondan Buxoroga keltiriladigan asosiy eksport tovarlaridan hisoblangan.

Tarixchilar tadqiqot ishlari natijasida Oʻrta Osiyo bilan Moskva oʻrtasidagi savdoning uch xil usulini aniqlashgan. Bular quyidagilar:

1). “Povalnaya” deb ataluvchi oddiy savdo boʻlib, bu savdo erkin savdogarlar orqali amalga oshirilgan.

2). Shox va xonlarning tovarlari bilan savdo boʻlib, bu savdo shox va xonlarning elchilik bilan kelgan shaxsiy savdogarlari orqali amalga oshirilgan. Shox va xonlarning tovarlaridan soliq olinmagan.

3). “Lyubitelskiye pominki” deb atalib, ikki davlat shox va xonlari oʻrtasidagi bojsiz tovar ayirboshlash hisoblangan.

Savdoning bu turlari hattoki Buxoro va Hindiston oʻrtasidagi savdoda ham oʻz aksini topgan. I.Gʻ.Nizomiddinovning fikricha, qimmatbaho toshlar, oltin va kumush Buxoroga savdoning ikkinchi va uchinchi usullari koʻrinishida keltirilgan. Jenkinson savdoning bu turlaridan bexabar boʻlgan koʻrinadi, shuning uchun yuqoridagi fikrga kelgan boʻlishi kerak.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Rossiya, Hindiston va Eron mamlakatlari oʻrtasidagi savdoda Buxoro vositachi vazifasini oʻtagan. XVI asrda Rossiya Hindiston bilan diplomatik munosabatlar oʻrnatmagan, ammo Eron va Oʻrta Osiyo orqali savdo qilish yoʻli bilan Hindiston – Buyuk Moʻgʻullar davlati bilan rasmiy munosabatlar oʻrnatish sari yul tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. Антоний Женкинсон 1558 йилда Моквага Лондон савдо компаниясининг вакили сифатида ташриф буюрган, ҳамда Россия подшоси Иван IVнинг ёрлиғи билан Хива ва Бухорога келган эди: Дженкинсон Антоний. Путешествие в Среднюю Азию в 1558 —1560 гг. //Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. /Пер. с англ. Ю.В.Готье. М.: ОГИЗ. 1937.
2. Соколов Ю.А. К вопросу о причинах провала английских устремлений в Восточную Европу, Среднюю Азию и Персию (XVI — XVII вв.)//Труды САГУ. Вып. 68. 1955. с. 17.
3. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Пг., 1915. С.3
4. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч .1. Л.: Изд-во АН СССР. 1932. С.9.
5. Бартольд В.В. Рец. на кн.: С.В. Жуковский. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Пг. 1915. С.285.
6. Дженкинсон А. Ўша асар. С.184.
7. Чулошников А. Торговля Московского государства с народами Средней Азии в XVI - XVII веках. //Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч.1. Л.: 1932. С.68; Юлдашев М.Ю. Ўша асар. С.70 - 71; Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в русско - индийских торговых связях (первая половина XVI - вторая половина XVIII в.). Ташкент. 1964. С.51.
8. Низамутдинов И.Г. Сношения Средней Азии с Индией в XVI— XVIII вв. Ташкент. Фан. 1966. С.16.; Низамутдинов И.Г. Из истории среднеазиатско — индийских отношений (IX — XVIII вв.). Ташкент. Узбекистан. 1969. С.50.